

## TOLERANTLIK JAMIYAT TARAQQIYOTI YO'LIDA

**Axmedova Dilafuz Baxadirovna**

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** *Maqolada shaxsning ijtimoiy hayotida tolerantlikning o'rnini haqida, bola rivojlanishi jarayonidagi tolerantlikning muhimligi va bularning barchasi oiladan boshlanishi haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'z:** *Tolerantlik, shaxs, xarakter, ijtimoiy-psixologik muhit, ong, tashabbus.*

Ijtimoiy fanlarda keng qo'llanilayotgan “tolerantlik” tushunchasini psixologik jihatdan tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Yoshlar tolerantlik dunyoqarashini shakillantirish dolzarb masaladir. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “...yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishga”[1] alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tolerantlik har bir shaxsning o'z-o'zini anglashi va shu asosda o'zgalarga munosabati xarakterini ifodalovchi tushunchadir. Har bir inson uchun boshqa insonlarning mavjudligi, o'ziga xos dunyoqarashga, ahloqiy qiyofa, turmush tarziga, ijtimoiy mavqega egaligi obyektiv voqelikdir. Tolerantlik omilining barqarorlik, jamiyatda tinchlik, ahil-totuvlik, ijtimoiy xamkorlikni taminlashdagi beqiyos o'rnini va ahamiyati bugungi kunda tan olingan haqiqatdir [2]. Shunday ekan tolerantlikni rivojlantirish mumkinmi? Buni qaysi yoshdan boshlash kerak? degan savollar tug'iladi. Bu savol huddi bolaga necha yoshdan tarbiya berish kerak degan savolga mutanosibdir. Bola tug'ilgan davrdan boshlash kerakligini nazarda tutib, uning o'ziga xos qirralarini xisobga olgan tarzda amalga oshiriladi. O'zbek xalqining mentalitetiga xos bo'lgan bolajonlik, ularga mehribonlik, bor-budini ularga tutish, olijanoblik kabi fazilatlar albatta muqaddas qadriyatlarimizdandir. Ushbu jarayon o'ta nozikligi bilan ajralib turadi, chunki boladagi tug'ma tolerantlikni bolada so'ndirib qo'ymagan holda uni yanada rivojlantirish ustida ishlash lozim. Bolalar dunyoqarashini shakillantirishda asosiy ikki vosita – ta'lim va tarbiya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish ota-onalarda muayyan mas'uliyatni anglash bilan bog'liq. Bunda yuzaga keluvchi subyekt-obyekt munosabatlaridan tashqari oiladagi muhit, jumladan tolerantlik muhiti bola ongi va tafakkuriga obyektiv tarzda kuchli ta'sir ko'rsatishini doim esda tutish lozim. Oilada er va xotin, aka-uka, opa-singillar, katta va kichiklar, qaynona-qaynota va kelin, ovsinlar o'rtasida real munosabatlar qanchalik tolerantlik talablariga mos kelishi, so'z va amal birligi bolalar ongida muxrlanib boraveradi. Oilada tolerantlikni rivojlantirish bevosita bolada tashabbuskorlik hususiyatini ham oshishiga zamin bo'ladi. Tashabbuskorlik va tolerantlik bu qushning ikki qanotiga o'xshaydi, qush baland parvoz qilishi uchun ikkisi ham zarur va ushbu hususiyatlar biri birini to'ldiradi [3].

Tolerantlikni rivojlantirish nafaqat shaxs uchun manfaatli bo'ladi balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda muhim bo'lgan tolerantlik, tashabbuskorlik hususiyatlari qancha o'rganilgani sari ularning yangi qirralari ochilib bormoqda. Masalan ba'zi olimlarning fikriga ko'ra tolerantlik tug'ma shaxs hususiyati bo'lsa, boshqalari fikriga ko'ra bu umr davomida shakllantirish mumkin bo'lgan hususiyatdir. Hozirgi kunda olimlarning ilmiy ishlari natijalarini tizimli ravishda ko'rib chiqadigan bo'lsak u yerda biror hususiyatni, sifatni rivojlantirish masalasi o'rtaga tashlanganda bunga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi shundaki biror hususiyatni rivojlantirish maqsadida olib borilgan ishlar uning teskari natijasini ko'rsatgan holatlar ham bor. Ya'ni ma'lum sifat o'sish, rivojlanish o'rniga unda orqaga ketish kuzatilgan. Bu esa hamma narsaga ham tashqi ta'sir foyda keltiradi degan fikrdan qochishga undaydi.

### ADABIYOTLAR;

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-4307 03.05.2019
2. Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari. –T.: Adolat. 2004. 92-6.
3. Abidova.Z.A, Jalilov.O'.J, Jurayeva.H.A. Взаимосвязь уровня толерантности личности с местом его проживания. Vestnik integrativnoy psixologii// Jurnal dlya psixologov. Son.27. –Buxoro-Yaroslavl:MAPN, 2023. – 39-44b.